

LINGVOPRAGMATIKA VA NUTQIY XATTI-HARAKATLAR NAZARIYASI**Xasanov Zafar Baxtiyorovich****O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti****Ingliz tili 2-fakulteti yoshlar masalalari****va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini**<https://doi.org/10.5281/zenodo.21337858>

Pragmatikaning rivojlanishida Herbert Paul Grice tomonidan ishlab chiqilgan kooperatsiya prinsipi va konversatsion implikatura nazariyasi alohida ahamiyatga ega. H.P. Gricening fikricha, muvaffaqiyatli muloqot uchun ishtirokchilar to'rt asosiy maksimani rioya qilishlari kerak: miqdor (kerakli darajada ma'lumot berish), sifat (haqiqiy ma'lumot berish), aloqadorlik (mavzuga mos ma'lumot berish) va uslub (aniq va qisqa bo'lish) maksimalari¹. Ushbu maksimalarning maqsadli buzilishi natijasida implikatura hosil bo'ladi - ya'ni so'zlovchi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ifodalanmagan, ammo tinglovchi tomonidan anglashilishi kerak bo'lgan ma'no.

H.P. Grice nazariyasi muloqot jarayonining kooperativ xarakterini asoslab berdi. Unga ko'ra, odamlar nafaqat o'z nutqiy xatti-harakatlari, balki muloqot sherigining javoblarini ham to'g'ri talqin qilishga intiladi. Ushbu maksimalarning maqsadli buzilishi haqidagi g'oya pragmatikaning eng qiziq jihatlaridan biridir. Masalan, “Boshqa futbolchilar bor edi, lekin uning maoshi eng yuqori” degan gapda miqdor maksimasi buziladi (kerakli ma'lumot to'liq berilmayapti), lekin bu implikatura hosil qiladi: “u yaxshi o'ynamasa ham, eng yuqori maosh oladi, ya'ni u o'z maoshiga noloyiq”. Bu nazariya, shuningdek, Sperber va Wilsonning relevantlik nazariyasini² rivojlantirish uchun zamin yaratdi, chunki ular H.P. Gricening to'rtta maksimasini bitta printsipga (relevantlikka) qisqartirishga harakat qildilar.

Implikatura hodisasini I.M. Minnikulov o'z tadqiqotida shunday tavsiflaydi: “so'zlovchi o'z kommunikativ maqsadi orqali tinglovchiga ta'sir o'tkazish uchun va unda salbiy, ijobiy va alternativ implikatura qoldirish uchun turli nutq aktiga doir shart munosabatini ifodlovchi konstruksiyalardan foydalanadi”³. Anglashiladiki, so'zlovchi har doim ham o'z fikrlarini to'g'ridan-to'g'ri ifodalamaydi, aksincha ko'pincha bilvasita usullardan foydalanadi va tinglovchidan ma'lum xulosa chiqarishni kutadi. I. Minnikulovning tadqiqoti H.P. Grice g'oyalarini o'zbek til materialiga tatbiq etishning yorqin namunasidir. U implikatura hodisasini o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, shart munosabatini ifodalovchi konstruksiyalar orqali tahlil qiladi. Bu esa milliy tilshunoslikda chuqur tadqiqotlar olib borilganidan dalolat beradi. Masalan, “Agar jamoamiz yutqazsa, men ham o'yinni ko'rmayman” degan gapda shart konstruksiyasi o'zbek tilida g'azab yoki ko'ngil qolish kabi salbiy implikaturani hosil qiladi. Bu o'rganish, shuningdek, pragmatika va grammatika o'rtasidagi yaqin aloqani ham ko'rsatib, R. Kempsonning pragmatik interfeys haqidagi g'oyasini tasdiqlaydi.

Pragmatik kontekstning ahamiyati haqida B. Ivanovska va boshqalar yozishicha, “pragmatika inson faoliyati va tafakkurining amaliy jihatlari, shuningdek, til belgilari (so'z va gaplar)ning real vaziyatlarda qo'llanilishini o'rganadi”⁴. Ko'rinib turganidek, pragmatik tahlil uchun ijtimoiy-madaniy muhit va ushbu muhitda muloqot jarayonining o'rganilishi o'ziga xos xususiyatdir. Bu ta'rif pragmatikaning faqat tilning ichki mexanizmlari bilan cheklanib qolmasdan,

¹ Grice H.P. *Logic and Conversation // Syntax and Semantics*. – New York: Academic Press, 1975. – Vol. 3. – P. 45-46.

² Sperber D., Wilson D. *Relevance: Communication and Cognition*. – Oxford: Blackwell, 1995. – 326 p.

³ Minnikulov I.U. *Ingliz va o'zbek tillarida shart munosabatlarini ifodlovchi til birliklarining pragmatik aspekti*: Filol. fan. d-r'i ... diss. – Toshkent, 2020. – B. 55.

⁴ Ivanovska B., Kasami M., Doncheva N. *Pragmalinguistics in Context*. – Skopje: University Press, 2015. – P. 7.

balki ijtimoiy-madaniy va kognitiv omillarni ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Pragmatik tahlil matnni o'rganishdan tashqari, nutq ishtirokchilari, ularning maqsadlari, muloqot muhiti va hatto ijtimoiy normalar kabi kontekstual ma'lumotlarni ham hisobga olishni talab qiladi. Shuning uchun, sport diskursida bir xil so'z("oliy liga!") turli kontekstlarda har xil ma'noni anglatishi mumkin - u baxtli baqiriq ham, kinoyali istehzo ham bo'lishi mumkin.

Relevantlik nazariyasi Dan Sperber va Deirdre Wilson tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ta'kidlashicha, muloqot jarayonida inson miyasi eng kichik kognitiv harakat bilan eng katta kognitiv ta'sirga erishishga harakat qiladi⁵. Bu nazariya nutqiy xatti-harakatlarni tushunish jarayonini o'rganishda qo'llaniladi va so'zlovchining niyati bilan tinglovchining talqini o'rtasidagi bog'lanishni izohlab beradi. Relevantlik nazariyasi H.P. Gricening kooperatsiya printsipini birgina kognitiv-pragmatik prinsipga qisqartirishga harakat qildi. U tilshunoslikka kognitiv fanlar, xususan, kognitiv psixologiya g'oyalarini kiritdi. Bu nazariyaga ko'ra, muloqotda ishtirokchilar doim eng minimal kuch sarflab (masalan, qisqa gapirish orqali) eng katta ta'sirga erishishga intiladi.

Diskurs tahlili pragmatikaning rivojlanishida yangi imkoniyatlar ochdi. T. van Dijk ta'kidlaganidek, "diskurs nafaqat tilning qo'llanilishi, balki ijtimoiy voqelikni yaratish va o'zgartirish vositasidir"⁶. Diskurs tahlili pragmatik hodisalarni kattaroq matn va ijtimoiy kontekst doirasida o'rganib, nutqiy xatti-harakatlarning to'liqroq tahliliga yo'naltirilgan. Pragmatika endi faqat alohida gaplarni emas, balki nutqning butun matn (diskurs)dagi o'rnini o'rganadi. Sport diskursi ham ijtimoiy voqelikni yaratadi va o'zgartiradi: muxlislar, sharhlovchilar, sportchilar va murabbiylar diskurs orqali sportning ijtimoiy mazmunini shakllantiradi.

Kognitiv pragmatika yo'nalishi zamonaviy tadqiqotlarda nutqiy xatti-harakatlarning kognitiv mexanizmlarini o'rganadi va pragmatik hodisalarni inson ongining ishlash tamoyillari bilan bog'laydi. Robyn Carston qayd qilganidek, "pragmatik jarayonlar kognitiv jarayonlarning bir qismi bo'lib, ular nutq ishlab chiqarish va tushunish jarayonlarida ishtirok etadi"⁷. Bu yo'nalish pragmatikaning psixologiya va neyrolingvistika bilan o'zaro aloqasini aks ettiradi. Kognitiv pragmatika odamlarning qanday qilib yashirin ma'noni (implikaturani) tushunishi, relevantlikni qanday aniqlashi va nutqiy aktlarni qanday qilib miyada qayta ishlashini o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda, lingvopragmatika va nutqiy xatti-harakatlar nazariyasi bugungi kunda tilshunoslikning eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jesse Snedeker va John Trueswell yozishicha, bu sohadagi nazariyalarni eksperimental usullar bilan sinab ko'rish orqali nafaqat ularning to'g'riligi tekshiriladi, balki pragmatik hodisalarning psixologik asoslari ham chuqur o'rganiladi⁸. Pragmatika shunchaki so'zlarning ma'nosini o'rganish emas, balki nutqning amaliy qo'llanilishini, ya'ni so'zlovchining kommunikativ maqsadini, uning nutqining tinglovchiga ta'sirini va kontekstning ahamiyatini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Eksperimental pragmatika pragmatik hodisalarni kuzatish, o'lchash va ularni tushunishning miyada qanday sodir bo'lishini o'rganishga yordam beradi. Bu yondashuv sport diskursini tahlil qilishda juda foydali, chunki u muxlislarning emotsional reaksiyalarini, sharhlovchilarning nutqini idrok etish jarayonini psixologik jihatdan o'rganishga izn beradi.

⁵ Sperber D., Wilson D. *Relevance: Communication and Cognition*. – Oxford: Blackwell, 1995. – P. 158.

⁶ Van Dijk T.A. *Discourse Studies*. – London: Sage, 1997. – Vol. 1. – P. 354.

⁷ Carston R. *Thoughts and Utterances*. – Oxford: Blackwell, 2002. – P. 19.

⁸ Snedeker J., Trueswell J. *Experimental Pragmatics* // *Annual Review of Psychology*. – 2004. – Vol. 55. – P. 529.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. – New York: Academic Press, 1975. – Vol. 3. – P. 45-46.
2. Sperber D., Wilson D. Relevance: Communication and Cognition. – Oxford: Blackwell, 1995. – 326 p.
3. Minnikulov I.U. Ingliz va o'zbek tillarida shart munosabatlarini ifodlovchi til birliklarining pragmatik aspekti: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2020. – B. 55.
4. Ivanovska B., Kasami M., Doncheva N. Pragmalinguistics in Context. – Skopje: University Press, 2015. – P. 7.
5. Sperber D., Wilson D. Relevance: Communication and Cognition. – Oxford: Blackwell, 1995. – P. 158.
6. Van Dijk T.A. Discourse Studies. – London: Sage, 1997. – Vol. 1. – P. 354.
7. Carston R. Thoughts and Utterances. – Oxford: Blackwell, 2002. – P. 19.
8. Snedeker J., Trueswell J. Experimental Pragmatics // Annual Review of Psychology. – 2004. – Vol. 55. – P. 529.